

MAYKL VIGGLESVORZNING “QIYOMAT KUNI” ASARIDA PURITAN ESXATOLOGIYASINING BADIY TALQINI

Ziyodullayeva Maftuna Ixtiyor qizi
Renessans ta’lim universiteti talabasi
ziyodullayevasevinch242@gmail.com
Ilmiy maslahatchi: A.F.Ismatov

ANNOTATSIYA

Mustamlaka davrida yaratilgan diniy she’rlardan biri Maykl Vigglesvorz qalamiga mansub “The Day of Doom” (“Qiyomat kuni”) asari o’z davrining eng mashhur diniy she’rlaridan biriga aylangan bo’lib, unda puritan dunyoqarashi, ayniqsa Calvinizm ilohiyotining asosiy g’oyalari yaqqol ifoda etilgan. She’rda, shuningdek, Qiyomat kuni tasviri orqali Xudo va inson o’rtasidagi ramziy suhbat ham badiiy tarzda aks ettiriladi. Mazkur maqolada Maykl Vigglesvorzning “The Day of Doom” (“Qiyomat kuni”) nomli she’riy asari tahlil qilinadi hamda unda mustamlaka davri Amerika adabiyotiga xos bo’lgan puritan dunyoqarashi va Calvinizm ilohiyotining badiiy ifodasi yoritiladi.

Tayanch so’z va iboralar: *adolat, axloqiy, azob, do’zax, gunoh, Calvinizm, konsept, Masih, Puritan, Xudo.*

KIRISH

Amerika mustamlaka davri adabiyotida diniy mavzular yetakchi o’rin egallagan bo’lib, bu davrda yaratilgan asarlar puritan dunyoqarashi va Calvinizm ilohiyotining kuchli ta’siri ostida shakllangan. XVII asr Amerika jamiyatida din nafaqat ijtimoiy hayotning, balki adabiy ijodning ham asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib xizmat qilgan. Shu sababli, ushbu davr adabiyotini o’rganish Amerika jamiyatining dastlabki ma’naviy va madaniy qadriyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Puritan ruhoniysi va shoiri Maykl Vigglesvorz tomonidan yaratilgan “The Day of Doom” (“Qiyomat kuni”) she’ri mustamlaka davri Amerika diniy adabiyotining eng mashhur namunalardan biri hisoblanadi. Asar muallif tomonidan 1655-1662-yillar oralig’ida yozilgan va 1662-yilda Massachusetts shtatining Kembrij shahrida birinchi marta nashr etilganligiga qaramay, qisqa vaqt mobaynida 1800 ta nusxada sotilishga muvaffaq bo’lgan. U o’z davrida shu qadar mashhur bo’lgani sababli keyinchalik Boston (1701, 1715), Norvich (1774, 1777) va London (1666) da qayta nashr etilgan. Asarda qiyomat voqealari, insonning gunohkor tabiati, ilohiy hukm va najot masalalari badiiy shaklda tasvirlangan bo’lib, unda puritan ta’limoti va Calvinistik ilohiyotning asosiy g’oyalari yaqqol ifodalangan.

MUNOZARA

Tadqiqotning ushbu qismida “The Day of Doom” she’rida ifodalangan Puritan adabiy an’anasi va Kalvinistik g‘oyalar tizimli tarzda tahlil qilinadi, jumladan, Xudoning adolati va azob, insonning gunohi, erkin iroda va najot, Masihning qiyomatdagi hukmdorligi hamda abadiy do‘zax kabi asosiy konseptlar chuqur o‘rganilib, ularning mazmun-mohiyati ilmiy asosda ochib beriladi. Shu doirada, Xudoning adolati va azob konsepti she’rda quyidagicha yoritiladi:

“Whom injure I? Will you envy, and grudge at others’ weal?

But I reply, you did deny, and slighted offered grace.”

Ushbu satrlar orqali she’rning markaziy teologik g‘oyasi, Xudoning hukmi mutlaq adolatga asoslanganini asoslab beradi. Shoir Xudoni passiv hukm chiqaruvchi emas, balki inson bilan muloqot qiluvchi, uning e’tirozlariga javob beruvchi faol subyekt sifatida tasvirlaydi. Bu uslub puritan didaktik adabiyotiga xos bo‘lib, o‘quvchini ilohiy hukmni mantiqan qabul qilishga undaydi. Shuningdek, mazkur misralarda jazoga sabab sifatida insonning o‘z tanlovi ko‘rsatiladi. Shunday qilib, shoir ilohiy suverenitetni insonning axloqiy mas’uliyati bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Bu esa Kalvinistik teologiyada muhim bo‘lgan adolat va inoyat o‘rtasidagi murakkab muvozanatni badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Keyingi konseptsiyaga qaraydigan bo‘lsak, insonning gunohi va u nasldan meros sifatida uzatilishi bevosita Odam Ato gunohi bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. She’rda insoniyatning gunohkorligi quyidagi ixcham, ammo mazmunan chuqur satrlar orqali ifodalanadi:

“Our father Adam’s sinful fall

Did all his sons enthrall.”

Bu misralar puritan teologiyasining asosiy tushunchasi, Odam Ato orqali insoniyatning umumiy buzilishini poetik formulaga aylantiradi. Satrning oxirida kelgan “*enthrall*” so‘zining tanlanishi ham tasodifiy emas. Zotan, u nafaqat asoratni, balki ruhiy qaramlikni ham anglatadi. Bu orqali shoir insonni gunohkorlikka moyil mavjudot sifatida emas, balki gunohga bog‘langan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Natijada, najot insonning shaxsiy sa’y-harakatiga emas, balki ilohiy inoyatga bog‘liq degan puritancha qarash mustahkamlanadi. O‘z navbatida, ushbu g‘oya she’rning keyingi barcha esxatologik tasvirlari uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Asarda markaziy o‘rinda turuvchi qarashlardan biri bu erkin iroda va najot tushunchalaridir. She’rda esa bu quyidagicha keltirilgan:

“You would not hear, you would not fear,

You would not turn at my reproof.”

Mazkur satrlar puritan ilohiyotidagi ikki asosiy tushuncha: predestinatsiya va insonning axloqiy javobgarligi o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi.

Kalvinistik qarashlarga ko‘ra, najot Xudoning tanloviga bog‘liq bo‘lsa-da, insonning gunohkorligi uning ongli ravishda ilohiy haqiqatni rad etishidan kelib chiqadi. Shu sababli, Vigglesvorz jazoni ilohiy zulm sifatida emas, balki insonning o‘z irodasi bilan tanlagan yo‘lining oqibati sifatida ko‘rsatadi. Ushbu misralar faqat teologik fikrni bayon etish bilan cheklanmay, balki o‘quvchini o‘z ruhiy holatini qayta baholashga undaydi. Takroriy inkor shakli orqali shoir o‘quvchiga bevosita murojaat qilayotgandek taassurot qoldiradi. Bu esa puritan adabiyotining asosiy maqsadi, diniy ogohlantirish va axloqiy tarbiyaga xizmat qiladi.

Asarda Maykl Vigglesvorz Masihning qiyomatdagi hukmdor sifatidagi tasviri markaziy esxatologik obrazlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir bu g‘oyani quyidagi satrlar orqali ifodalaydi:

*“Then shall the Judge descend in might,
Array’d in glorious majesty.”*

Bu misralar orqali Masih ikki xil rol najotkor va hukmdorni birlashtirgan holda tasvirlanadi. *“Descend in might”* iborasi ilohiy qudratni, *“glorious majesty”* esa hukmning ulug‘vorligini ifodalaydi. Bu tasvirlar Bibliyadagi apokaliptik sahnalar, xususan *“Book of Revelation”* bilan intertekstual aloqadorlikni ko‘rsatadi.

Adabiy jihatdan bu satrlar she‘rning epik miqyosini kengaytiradi va uni oddiy didaktik she‘rdan diniy-epik asar darajasiga ko‘taradi. Bundan tashqari, Masihning bu tarzda ulug‘vor va qudratli hukmdor sifatida tasvirlanishi o‘quvchida nafaqat diniy qo‘rquv, balki ilohiy tartib va adolatning muqarrarligiga nisbatan ishonch hissini ham shakllantiradi. Shu orqali shoir qiyomat manzarasini nafaqat voqeaga, balki puritan dunyoqarashining markaziy teologik haqiqatini tasdiqlovchi ramziy sahnaga aylantiradi.

She‘rda gunohkorlar va yovuz ruhlarning do‘zaxga abadiy tashlanishi quyidagi obraz orqali ifodalanadi:

*“Into that lake that ever burns
With fire and brimstone flame.”*

Bu satrlar puritan adabiyotida keng qo‘llanilgan qo‘rqitish orqali tarbiya berish uslubining yorqin namunasidir. *“Fire and brimstone”* iborasi Bibliyaviy esxatologiyaning eng an‘anaviy metaforalaridan biri bo‘lib, u do‘zaxni nafaqat jazolash, balki ilohiy g‘azabning timsoli sifatida ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, do‘zaxning tasviri she‘rning estetik mazmunidan ko‘ra didaktik va diniy vazifani oldingi o‘ringa qo‘yadi. Shu tariqa, Vigglesvorz o‘quvchida nafaqat vizual tasavvur, balki axloqiy va ruhiy anglashni uyg‘otadi. Bu esa asarning puritan etikasidagi tarbiyaviy maqsadini aniq ko‘rsatadi.

She‘rda najot topganlarning hukm jarayoniga munosabati ham tasvirlanib, uning quyidagi ko‘rinish hosil qilgani ko‘rinadi:

*“The saints with joy behold the doom
Of those that perish there.”*

Bu satr puritan teologiyasining eng bahsli jihatlaridan birini ochib beradi. Tanlanganlarning boshqalarning jazosi ustidan quvonch bilan qarashi zamonaviy gumanistik qarashlarga zid ko‘rinsa-da, XVII asr puritan tafakkurida bu ilohiy adolatning to‘liq namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilingan. Shuningdek, shoir bu tasvir orqali najotning mutlaq ilohiy sovg‘a ekanini va jazoga duchor bo‘lganlarning holati adolatli hukm natijasi ekanini ta‘kidlaydi. Bu esa predestinatsiya g‘oyasini emotsional va dramatik shaklda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, Maykl Vigglesvorzning “Qiyomat kuni” she‘ri Kalvinistik ilohiyotning izlarini o‘zida mujassam etadi. Masalan, quyidagi Odam Atoning osmondan qulashi voqeasi tasvirlangan misralarda Kalvinizm ta‘limotidagi insoniyatning asl gunohi konsepti aks ettirilgani kuzatiladi:

*“Not we, but he ate of the Tree, whose fruit was interdicted;
Yet on us all of his sad Fall the punishment’s inflicted”.*

Sir emaski, Kalvinizm o‘z ilohiy qarashlarini Odam Atoning yaratilishi va uning tanazzuli haqidagi rivoyatlar konsepsiyasi asosida izohlaydi. Vigglesvorzning she‘ri esa ushbu ta‘limotning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. She‘rda tasvirlangan ushbu voqealar “Kalvinistik ahd ilohiyoti” konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u Xudo va inson o‘rtasidagi munosabatning teologik asoslarini yoritadi. Ushbu tipdagi ahd ilohiyoti Xudoning koinotni yaratishi, odamlar va ularning tabiatini shakllantirish, shuningdek, insoniyatning axloqiy va ruhiy javobgarligini belgilashga oid ta‘limotlarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, she‘r Kalvinizmning predestinatsiya, inson tabiati va gunoh konseptlarini badiiy tarzda ifodalaydi, deyish mumkin.

Shuningdek, Kalvinistik ilohiyotning asosiy tushunchalaridan biri, inson tabiatining to‘liq buzilganligi (tug‘ma gunohkorlik) bo‘lib, unga ko‘ra inson tug‘ilishidan boshlab gunohga moyil va ma‘naviy jihatdan zaif hisoblanadi. O‘z navbatida, bu holat Odam Atodan meros bo‘lib o‘tgan, deb talqin qilinadi. Kalvinistik nuqtai nazarga ko‘ra, butun insoniyat gunoh ta‘siri ostida bo‘lib, hech bir inson bu holatdan mustasno emas. Bu tushuncha shuni anglatadiki, gunoh insonning nafaqat xatti-harakatlariga, balki uning qalbi, tafakkuri va jismoniy mavjudligiga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Kalvinistik ilohiyotning bu qarashlarini biz she‘rda 44-bandning birinchi va ikkinchi satrlarida quyidagicha keltirilgan:

*"You sinners are, and such a share as sinners may expect;
though every sin’s a crime."*

Gunoh faqat xato emas, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan jinoyat ekanligini uqtirayotgan yuqoridagi mazkur misralar o‘quvchiga inson tabiatining gunohkorligi va uning nasldan meros sifatida uzatilishini tushuntiradi. Aynan shu Kalvinistik

ilohiyotning markaziy g'oyalaridan biri bo'lib, Xudoning adolati va insonning javobgarligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, banddagi misralar orqali bildiradi.

XULOSA

Shunday qilib, Maykl Vigglesvorzning XVII asr Yangi Angliya puritan adabiyotining diniy va axloqiy konseptlarini chuqur badiiy tasvirlaydigan “The Day of Doom” nomli asari esxatologik nuqtai nazardan puritan dunyoqarashi va kalvinistik ilohiyotning asosiy tamoyillarini izchil yoritib, XVII asr Amerika jamiyatining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda Xudoning adolati (shafqatsizlik sifatida emas) borliqdagi axloqiy tartib va kosmik nizomni ta'minlovchi oliy tamoyil sifatida talqin qilinib, kishining irodasi va shaxsiy tanlovi uning najot topishi yoki abadiy azobga duchor bo'lishida hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Analysis Of The Day Of Doom By Michael Wigglesworth
<https://www.ipl.org/essay/Analysis-Of-The-Day-Of-Doom-By-PKVLKCT74AJF6>
2. Bremer F. J. Puritanism: A very short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 136 p.
3. Dabney R. L. The Five Points of Calvinism. – Edinburgh: Banner of Truth Trust, 1963. – 44 p.
4. Michael Wigglesworth. Retrieved May 28, 2021.
<https://www.britannica.com/biography/Michael-Wigglesworth>
5. The Day of Doom. Retrieved May 28, 2021. <https://www.bartleby.com/96/10>
6. Widiastuti M. Konsep Keselamatan dalam ajaran Calvinisme. Jurnal Pioner, 2019. – Vol. 5, No. 4. – P. 228–296.
7. https://en.wikipedia.org/wiki/The_Day_of_Doom